



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024-yil 7-sentabr

392-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati  
hokimligi

### O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi seysmoprognostik monitoring Respublika markaziga Yakkabog' tumani "Tatar" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan "Shirinbuloq" seysmik stansiyasi qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdag'i "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi seysmoprognostik monitoring Respublika markazining 2024-yil 14-avgustdag'i 28/3/3-114-son buyurtma xatini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-, 10-moddalariga asosan

#### QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining ijobjiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobjiy xulosalari va kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi seysmoprognostik monitoring Respublika markaziga Yakkabog' tumani "Tatar" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan 0,30 hektar boshqa yer maydoni, "Shirinbuloq" seysmik stansiyasi qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G'.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlar xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy communal xo‘jaligi bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda uch ish kuni davomida yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilasin.

6. Ushbu yer uchastkasining chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi tomonidan naturada (joyning o‘zida) belgilanganiga hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar mazkur yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlansin.

7. Ushbu yer uchastkasida qurilish ishlarini boshlashga yoki davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan boshqa maqsadlarda foydalanishga faqat ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin yo‘l qo‘yiladi.

8. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

9. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

10. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining [www.qashqadaryo.uz](http://www.qashqadaryo.uz) rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rnbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

**Viloyat hokimi**



**M.Azimov**